

MOBIL ILOVALAR ORQALI O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL TA’LIM FAOLIYATINI QO’LLAB-QUVVATLASH

Yuldashev Muxammadjon Xalillulo o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu maqolada mobil ilovalarning o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo’llab-quvvatlashdagi o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar orqali o‘quvchilar bilimni mustaqil izlab topish, tahlil qilish va amalda qo’llash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Interaktiv, moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan o‘quv muhiti yaratuvchi mobil ilovalar o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni faol o‘rganishga undaydi. Shuningdek, maqolada mobil ta’limning afzallikkari, pedagogik yondashuvlar, amaliy misollar va foydalanishda yuzaga keladigan muammolar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mobil ilovalar, mustaqil ta’lim, raqamli texnologiyalar, interaktiv o‘qitish, o‘quvchilar faolligi, ta’limda innovatsiya, mobil ta’lim muhiti.

Аннотация: В этой статье анализируется роль и эффективность мобильных приложений к независимой образовательной деятельности. Благодаря цифровым технологиям студенты могут найти знания, анализировать и применять. Мобильные приложения, создающие интерактивную, гибкую и персонализированную учебную среду, побуждают студентов повысить их интерес к образованию и активно изучать их. В статье также рассказывается о преимуществах, педагогических подходах, практических примерах и возникающих проблемах.

Ключевые слова: Мобильные приложения, независимое преподавание, цифровое обучение, интерактивное обучение, студенты, деятельность в образовании, среда мобильного образования

Zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil o‘qish va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim yondashuvlari tobora kengayib bormoqda. Bu jarayonda raqamli texnologiyalar, ayniqsa mobil ilovalarning roli katta ahamiyat kasb etmoqda. O‘quvchilarning o‘zlari qiziqqan fanlarni chuqurroq o‘rganishlari, mustaqil ravishda bilim olishlari, testlar bajarish va o‘z bilimlarini baholash imkoniyatlarini mobil qurilmalar taqdim etmoqda. An’anaviy dars shakllarida faqat auditoriyada amalga oshiriladigan faoliyat bugun har qanday joyda, istalgan vaqtida davom ettirilmoqda.

Mobil ilovalar ta’lim jarayonini interaktiv tarzda tashkil etish imkonini beradi. Quizizz, Kahoot, Duolingo, Khan Academy, Photomath kabi ilovalar o‘quvchilarning fanga nisbatan qiziqishini oshiradi, natijalarini tahlil qilishga yordam beradi. Bunday platformalarda topshiriqlarni bosqichma-bosqich bajarish, mukofotlar va reytinglar orqali o‘quvchini rag‘batlantirish mexanizmlari mavjud bo‘lib, bu jarayonning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, individual o‘rganish darajasini aniqlash va unga mos materiallarni taklif qilish funksiyasi o‘quv jarayonini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta’lim o‘quvchining o‘z bilimlarini izlash, tahlil qilish, umumlashtirish va qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Mobil ilovalar bu ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun turli vositalarni taklif etadi. Misol uchun, til o‘rganishda Duolingo kundalik mashqlar, testlar va talaffuz mashqlarini taklif etadi. Matematikada Photomath ilovasi nafaqat yechimni, balki uning izohli tushuntirishini ham beradi. Bu esa mustaqil tahliliy fikrlash va o‘z ustida ishslash madaniyatini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlashga, darsdan tashqari vaqtda ham o‘quvchini faol bo‘lishiga yordam beradi. O‘qituvchi tomonidan yuborilgan topshiriqlar, testlar yoki dars materiallari ilova orqali yetkaziladi, o‘quvchi esa ularni o‘z vaqtida bajaradi va natijalarni qayta ko‘rib chiqish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o‘quvchining ta’limdagi faolligini ham kuchaytiradi.

Shu bilan birga, mobil ilovalardan foydalanishda ayrim xavf-xatarlar ham mavjud. O‘quvchining e’tibori chalg‘ishi, boshqa nofoydali ilovalarga vaqt sarflashi, internetga haddan tashqari qaramlik holatlari bu texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish natijasi bo‘lishi mumkin. Shu sababli pedagoglar tomonidan nazorat, motivatsiya va yo‘naltiruvchi yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Mobil ilovalar orqali o‘quvchilarning mustaqil ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlash zamonaviy ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu texnologiyalar ta’limni shaxsiylashtirish, o‘rganish jarayonini qulaylashtirish, natijalarni monitoring qilish, hamkorlikda ishslash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ta’lim tizimi ishtirokchilari bu vositalardan samarali foydalanish uchun metodik qo‘llanmalar, o‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va o‘quvchilarni motivatsiyalovchi mexanizmlarni ishlab chiqishlari lozim. Mobil ta’lim vositalari orqali o‘quvchining mustaqil faoliyati faqat bilim emas, balki o‘zini anglash, rivojlantirish va mas’uliyat hissini kuchaytirishga xizmat qilishi kerak.

ADABIYOTLAR.

1. Anderson, T., & Dron, J. (2011). Three generations of distance education pedagogy. *The International Review of Research in Open and Distributed Learning*, 12(3), 80–97.
2. Clark, R. C., & Mayer, R. E. (2016). *E-learning and the science of instruction: Proven guidelines for consumers and designers of multimedia learning*. John Wiley & Sons.
3. Karimov, I. A. (2006). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat.